

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA INSON RUHIYATI VA TABIAT TASVIRI UYG'UNLIGI

Soliyeva Gulshanoy FarDU talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola Abdulla Qahhor hikoyalarida inson ruhiyati va tabiat tasvirining o‘zaro uyg‘unligini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Yozuvchi asarlarida tabiat manzaralari faqat voqea bezagi emas, balki qahramonlarning ichki kechinmalari, kayfiyati va ruhiy iztiroblarini ochishda muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo‘lishi ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot jarayonida “Ming bir jon”, “Dahshat”, “Anor”, “Karavot” kabi hikoyalardagi tabiat tasviri va uning psixologik funksiyasi o‘rganildi. Analiz natijalariga ko‘ra, Qahhor tabiat obrazlari orqali inson ruhidagi murakkabliklarni yanada chuqurroq ochadi, voqealar ta’sirchanligini kuchaytiradi hamda asarlar mazmunining ma’naviy-estetik qimmatini oshiradi. Ish yakunida yozuvchining tabiat va ruhiyat uyg‘unligini yoritishdagi mahorati o‘zbek adabiyotidagi psixologik tasvir rivojiga sezilarli hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qahhor, inson ruhiyati, peyzaj tasviri, hikoya, uyg‘unlik.

Abdulla Qahhor-o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri bo‘lib, uning hikoyalari xalq hayotining teran tasviri, til boyligi va badiiy uslubi bilan ajralib turadi. Abdulla Qahhor o‘zbek hikoyachiligini zamonaviy jahon hikoyachiligi darajasiga ko‘tardi va o‘zbek realistik hikoyachiligining asoschisi degan nom oldi. Adib hikoya janrida inson ruhiyatini chuqur tahlil qilishi, hayotiy detallar orqali badiiy haqiqat yaratishi bilan ajralib turadi. Uning hikoyalarida tabiat tasviri shunchaki fon yoki bezak vazifasini bajarmaydi, balki qahramon ruhiy kechinmalarining bevosita davomchisiga aylanadi. Yozuvchi tasviridagi barcha narsa real hodisa, hayotiy bo‘lib o‘tgan voqeaning bir bo‘lagi, epizodi bo‘lib gavdalanadi. Adib hikoyalaridagi ko‘p voqea-hodisalar, obrazlar real hayotiy asosga ega bo‘lib, o‘zi ko‘rgan, eshitgan hodisalardan olingan. Lekin aynan ularni ko‘chirmagan. Abdulla Qahhor asarlariga xalqdan obraz olgan holda badiiyat qo‘shib, ular ta’sir kuchini oshirgan. Yozuvchi o‘zbek adabiyotida inson ruhiyati, ma’naviy iztiroblari va turmush kechinmalarini sodda, ammo nihoyatda teran tasvirlagan mohir yozuchilardan biridir.

Uning hikoyalarida tabiat manzaralari faqat bezak vazifasini bajarmaydi, balki qahramon ruhiy kechinmalarining bevosita davomchisi sifatida xizmat qiladi. A.Qahhor tabiatni gohida obraz, gohida timsol, gohida psixologik fon sifatida qo'llab, insonning ichki olamini ochishda undan mahorat bilan foydalanadi.

Abdulla Qahhor ijodida tabiat inson ruhiy holatining aks-sadosidir. Yozuvchi hikoyalarida tabiat tasviri qahramonning ayni damdagi his-tuyg'ulariga hamohang quriladi. Tabiatdagi voqea-hodisalar asar qahramonlarining hoziri yoki kelajagiga ishora qiladi. Masalan: “Ming bir jon” hikoyasidagi peyzaj tasviri-"Martning oxirgi kunlari. Ko'k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz ko'yga solyapti. Ofyob har safar bulut ostiga kirib chiqqanida, bahor kelganidan bexabar hanuz g'aflatda yotgan o't-o'lanni, qurt-qumursqani uyg'otgan, avvalgidan ham yorug'roq, avvalgidan ham issiqroq shu'la sochayotganday tuyuladi". Ushbu tasvirlar Masturaning hozirgi ahvoli va kelajakdagi holatiga ishora qiladi. Ko'k yuzida suzib yurgan bulutlar, qahramonning hozirgi kasal holatini, quyoshni ya'ni baxtli kunlarini to'sayotganini ko'rsatadi. Lekin voqea davomida quyosh yana bulutlar orasini yorib chiqadi va avvalgidan kuchliroq nur sochadi. Bu Masturaning dardlardan halos bo'lishi, yanada kuchliroq, yanada chiroyliroq bo'lishini ko'rsatadi. Shu jihatdan “bulutlar”ni Masturaning dardi, hayotidagi qiyinchiliklarining ramziy obrazi deb qarasak, “quyosh” esa ayni Masturaning o'zidir. Bu kabi xususiyatlar adibning ko'plab asarlarida uchraydi. “Dahshat” hikoyasida ham tabiatdagi ro'y berayotgan hodisalar qahramon ichki kechinmalari, ro'y berajak voqealarni so'zlaydi. Asar boshidayoq tasvirlangan kuzak shamoli, u sabab yuz berayotgan vahshatlar insonni vahimaga soladi. Hikoyani o'qishni boshlagan kitobxon yuragida paydo bo'lgan qo'rquv, hayajon, hadik kabi tuyg'ular asarni oxirigacha tark etmaydi. Ushbu hikoyadagi tabiatdagi yuz berayotgan qo'rqinch hodisalar, Olimbek dodhoning uy ichidagi dahshatli hayot tarzini akslantiradi. Bu xil tabiatdagi tartibsizliklar asar oxiriga borib obrazlar hayotiga ko'chadi. Ularning hayot tarzi kutilmagan tarzda o'zgarib ketadi. Huddi, shamol qo'qqis bo'yroni darchaga keltirib urgani singari. Asarda qabriston tasviri qay darajada qo'rqinchili tasvirlanadi?! Shu dahshat ichiga Unsinning kirishga rozi bo'lishi esa Olimbek dodhoning uyi, u bilan birga yashash qabristondanda qo'rqinch ekanini ko'rsatadi. Buni ifodalash uchun esa Abdulla Qahhor ortiqcha tushuntirishlar keltirmaydi. Faqatgina tiriklar go'ristoni jumlasini orqali

o'quvchi onggiga singdiradi. Birgina jumlada qahramonlar hayot tarzi, ularning havas qilishga arziyas taqdirlarini mujassamlantiradi. Ortiqcha tafsilotlat keltirish A.Qahhor uslubiga xos emas.

Adibni bilamiz, “Kam so'zda ko'p ma'no ifodalash” mahoratiga ega ba shu xususiyatni ilgari suradi. U vaziyatni kitobxonga anglatish uchun ko'plab tafsilotlat so'zlamaydi. Birgina ibora, tasvir vositasi yoki gap orqali qahramonlar ijtimoiy va ruhiy holatini kitobxon shuuriga singdiradi. Misol uchun, “Anor” hikoyasida ham shu xil holat ko'zga tashlanadi. Asar “Turobjon javob bermadi. Uning vujudi titrar edi”, - deb yakunlanadi. Uning vujudi titrashi, javob berishganda holi yo'qligi qahramonning ichki kechinmasini ortiqcha tasvirlarsiz ifodalaydi. Kitobxon shu birgina gap orqali qahramon bilan bog'liq qo'rqinch bir hodisa yuz berganini anglaydi.

Yozuvchining “Ming bir jon” hikoyasi yakunida Masturaning salomini- omonatini- Hoji akaga topshirish uchun uni topadi, lekin “salomini topshira olmadim”, -degan jumlasini, o'quvchiga butun bo'lgan voqeani anglatadi. Hoji akaning bu olamni tark etgani, vafot etganini kitobxon shu birgina jumla orqali tushunadi. Abdulla Qahhor uslubining o'ziga xosligi ham ana shunda. Uning qisqa hikoyalarida olamlarcha ma'no anglashiladi.

Abdulla Qahhor asarlaridagi tabiat va shaxs ruhiyati uyg'unligiga “Karavot” hikoyasi ham misol bo'la oladi. Havoning “qovog'i soliq” deb ta'riflanishida shaxsga xos xususiyatlar tabiatga ko'chadi. Yana “kishining bahrini ochadigan hech narsa yo'q”, -deb yozarkan, qahramon hayotiga ishora seziladi. Asarda G'anijon yo'l chetidagi inson tufayli halovatini yo'qotadi, tunlari uyqusidan ayriladi. Ya'ni hech narsa uning ko'nglini ocha olmaydi. Ilk farzandi uchun olgan chiroyli karavot ham ko'ziga ko'rinmaydi.

Xulosa: Abdulla Qahhor hikoyalarida tabiat va inson ruhiyatining uyg'un tasviri yozuvchi uslubining asosiy badiiy tamoyillaridan biridir. Tabiat tasviri qahramon kechinmalarini ochishda psixologik fon bo'lib xizmat qiladi, voqealar ta'sirchanligini oshiradi hamda asarning ma'naviy-estetik qimmatini boyitadi. Qahhorning bu yondashuvi o'zbek adabiyotida psixologik tasvirning rivojiga katta hissa qo'shgan bo'lib, uning hikoyalarini chuqur mazmunli va badiiy jihatdan teran qiladi. Uning hikoyalarida qisqa va

lo'ndalik ustunlik qilsada ulardagi ma'no-mazmun olamlarcha anlashiladi. Yozuvchi har bir so'z qadrini chuqur anglagan holda ulardan unumli foydalanilgan. Asarlariga so'zlarni tanlab oladi va har bir qo'llangan so'z voqea rivojiga turtki bo'ladi. Abdulla Qahhor o'zining qisqa hikoyalari orqali hayotdagi ulkan ziddiyatlar, insonlar orasidagi munosabatlarni yoritadi. Yozuvchi ko'plab hikoyalariga xulosa qilmaydi, bu esa har bir kitobxon o'z qarashlari, hayotidagi ro'y berayotgan voqea-hodisalardan kelib chiqan holda individual xulasa chiqarishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Qahhor. Ming bir jon.- Toshkent, 2024.
2. A. Qahhor. Tanlangan asarlar. 5 jildlik.- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.